



## **ASHURALI ZOHIRIYNING XX ASR BOSHLARIDA QO‘QONDA MAORIF TARAQQIYOTINING RAVNAQIGA QO‘SGAN HISSASI**

*Sh.A.Mirzamidinova*

*Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar”  
kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** Jadidchilik o‘zining madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmun-mohiyati bilan Turkiston tarixida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oya va amaliy harakat edi. Biroq, 1917-yilgi ketma-ket yuz bergan inqiloblar natijasida yuzaga kelgan siyosiy voqeilik Turkiston jadidlarining oldiga ham o‘ziga xos bo‘lgan bir qator talablarni qo‘ya boshladi. O‘z vaqtida Boymirza Hayit: “Turkistonda sovet hokimiyatining boshlanishi, jadidchilik oldig‘a yana yangi bir vazifani va g‘amni keltirib qo‘ydi. Jadidchilarning oldida endi “Nima qilmoq kerak?” degan so‘roq turar edi. Buning javobi esa, mujodalada qatnashmoq va ayni vaqtda sovetlarning ichiga kirib bu yerda milliy mujodalani muhofaza etmak edi”, deb yozgan holda, zamonning jadidlar oldiga qo‘yan og‘ir talablarni juda to‘g‘ri anglagan edi. Shu boisdan ham keyinchalik jadidlarning bir qismi milliy istiqlolchilarga qo‘shilgan bo‘lsa, ikkinchi qismi esa sovet hokimiyati idoralariga ishga kirgan holda Turkistonning hur va ozod bo‘lish yo‘lida kurash olib bordilar.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, maorif, yangi usul maktablari, matbuot, mafkura, qurultoy, maqola, siyosiy mafkura, til, tarix, “Sadoyi Farg‘ona”, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Yulduz” va “Quyosh” gazetalari, “Yurt” jurnali, “Gayrat” kutubxonasi, Turkiston Muxtoriyati.

**Annotation:** Jadidism, with its cultural-educational and socio-political essence, was an idea and practical movement of great significance in the history of Turkestan. However, the political realities that emerged as a result of the successive revolutions of 1917 began to place a number of unique demands on the Jadids of Turkestan. In his time, Boymirza Hayit accurately understood the difficult demands that the era placed before the Jadids when he wrote: "The beginning of Soviet power in Turkestan brought yet another new task and concern before the Jadid movement. The Jadids now faced the question: 'What should be done?' The answer was to participate in the struggle and, at the same time, to enter the Soviet system and protect the national struggle from within." Consequently, later on, while some Jadids joined the national independence fighters, others entered into Soviet government agencies and continued to fight for Turkestan's freedom and independence.

**Key words:** Jadidism, education, new method schools, press, ideology, congress, article, political ideology, language, history, Newspapers "Sadoyi Fergana", "Vaqt," "Shuro," "Yulduz," and "Quyosh", "Yurt" magazine, "G'ayrat" Library, Turkestan Autonomy.

**Kirish.** Jadidchilik harakati shunchaki madaniy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lmasdan balki, u juda katta siyosiy va qudratli kuchni o‘zida jamlagan edi. Buni o‘z paytida Moskvadagi Sharqshunoslik institutining direktori sifatida faoliyat olib borgan Bobojon G‘afur o‘zining “Sovet ittifoqi kommunist firqasi milliyat siyosatining ba’zi bir masalalari” nomli risolasida: “Ba’zi bir olimlar “O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakatini oktyabr inqilobi davrigacha bo‘lgan davrini taraqqiyarvar bir harakat deb qabul qilish kerak” degan fikrni tavsiya qiladilar. Bu chuqur xatodir. O‘rta Osiyoda va boshqa yerlarda jadidchilik 1905-1907-yillardagi inqilobdan keyin aksilinqilobchi kuch edi. Jadidlar inqilobga qarshi kurashdilar”, deb ta’kidlagan.

Ashurali Zohiri ham ko‘plab turkistonlik jadid taraqqiyarvarlari singari inqilobdan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklarning yovuz g‘oya va siyosiy harakatlariga qarshi zimdan kurash olib bordi. Zohiri Boymirza Hayit tomonidan tasniflangan jadidlarning ikkinchi turiga mansub edi. Masalan, Ashurali Zohirikeyinchalik sovet tashkilotlarida ishlaganida ham doimo milliy mustaqillik g‘oyasi bilan yashadi, Turkistoni yana qaytadan ozod ko‘rish ishqida yonayotgan milliy istiqlolchilik kurashi vakillari bilan yaqindan hamkorlik qildi. Tarixchi olim Q.Rajabovning bergan ma’lumotlariga qaraganda Ashurali Zohiri Munavvarqori Abdurashidxonov, Miyon Buzruk Solihovlar bilan birga Farg‘ona qo‘rboshilarining maxsus tashkil etilgan qurultoyida ishtirok etgan[1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ashurali Zohiri eng avvalo maorif masalasiga katta e’tibor qaratib, xususan Qo‘qon shahrida ochilgan “G‘ayrat” kutubxonasining faoliyatini yanada jonlantirish borasida katta ishlarni amalga oshirdi.

U eng avvalo “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yilgi 31-sonida “Umumumiylitobxona va qiroatxonaga extiyoj” nomli maqolani e’lon qilib, qo‘qonlik taraqqiyarvar ziyoli va aynisa yoshlarni ushbu muammoni yechish yo‘lida ijтиҳод qilishga chaqirdi. Zohiri ushbu maqolasidagilarni yozadi: “Ho‘qandda yuz mingdan oshiq musulmon aholi bo‘lg‘oni holda, umumiy kitobxona va qiroatxonalar yo‘qdur. Umumiy ehtiyojlarimizdan biri shubhasiz, qiroatxona va kutubxonadir. Ne uchunkim: hozirgi vaqtarda aholida o‘quv va mutolaa rag‘bati ortib turg‘oni ko‘rilmakda va ko‘rmoqdadurmiz. Bir heyli mutolaga havaskor yoshlarimiz va mutafakkir zotlarimiz kitob do‘konlarida va gazeta idoralarida, mutolaa qilamiz deb, soatlarcha bechora do‘kondor ham gazeta idoralarini ishlaridan qo‘yub yurmoqdadurlar. Agarda shahrimizda umumiy kitobxona bo‘lg‘onida edi, bechora mutolaachilar sarson va sargardon bo‘lib yurar edilarmu? Hayhot!!!”[3]. Bundan tashqari Zohiri o‘zining ushbu maqolasida Toshkent shahrining yangi shahar qismidagi rus kutubxonasida ham bir necha adad “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Yulduz” va “Quyosh” kabi tatar tilidagi gazeta va kitoblar mavjud bo‘lsa ham mahalliy xalq uchun bu matbuot nashrlari va kitoblar tushunushlik va qulay tarzda o‘qishlik uchun mashaqqat tug‘dirishligini qayd etib, o‘zbek xalqi o‘zining tilidagi gazeta va kitoblarga katta ehtiyoj mavjudligini ham ta’kidlab o‘tgan. Shuning uchun ham mahalliy musulmon xalqi uchun alohida kutubxona ochilishi lozim, shunday qilinsa: “...bir tarafdan mutolaa muhiblari tinch bo‘lib, digar tarafdan kechalari safsata sotib behuda o‘lturg‘on yoshlarga foydalik bir mashg‘ulot bo‘lar edi”[3].

Ko‘plab taraqqiyatining singari Ashurali Zohiriyning ham sa’ay-harakatlari natijasida “G‘ayrat” kutubxonasi asos solinib, uning nomi tez orada butun Qo‘qonda dong taratdi. Jumladan, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1915-yilda chop etilgan bir qator sonlarida ushbu kutubxonanining faoliyatiga doir ma’lumotlar berib borilgan.

Umuman olganda, “G‘ayrat” kutubxonasi “G‘ayrat” jamiyatining negizida vujudga kelgan bo‘lib, uning tarkibida kutubxonadan tashqari matbaa ham bor edi. Ushbu matbaa yangi usul maktablari uchun darslik hamda kitoblar, daftarlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Shuningdek, Ashurali Zohiriylar ushbu jamiyatning faoliyatini yanada jonlantirish hamda o‘zini o‘zi moddiy jihatdan ta’minalash uchun milliy tillarda chop etilgan gazeta-jurnallarni sotish va tarqatishni yo‘lga qo‘yadi. Tarixchi olim Qahramon Rajabovning qayd etishicha Qo‘qonning eski shahar qismida joylashgan “G‘ayrat” jamiyatining alohida kitob do‘koni ham faoliyat yuritgan bo‘lib, unda Istanbul, Boku va Orenburg shaharlarida chop etilgan kitoblar va gazeta-jurnallar sotilgan. “G‘ayrat” jamiyati birlashgan bino 1918-yilning fevral oyida Turkiston Muxtoriyati hukumatini yo‘q qilish uchun qilingan hujum asnosida yonib kulga aylangan[4].

Lekin, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining bir qator sonlarida qayta-qayta e’lon tarzida yozilishicha “G‘ayrat” kutubxonasi o‘z davri uchun ko‘plab kitob va gazeta-jurnallar bilan to‘ldirilgan bo‘lgan. Masalan, gazetaning 1915-yilgi 120-sonida bosilgan “Ho‘qandda yangi ochilmish “G‘ayrat” kutubxonasi” nomli maqolada quyidagilar yozilgan: “Har xil mutolaa va maktab kitoblari, mukammal suvratda [kutubxonada] mavjud”[5].

Shuningdek, Ashurali Zohiriylar pedagog sifatida ham millatni qayta tarbiyalashni, xalq bolalarini sifatli ta’lim bilan ta’minalash borasida ma’lum bir ishlarni amalga oshirdi. Shu manoda Qo‘qondagi usuli-jadid maktablarini yanada rivojlantirish ishlarida Zohiriylar ham faol tarzda ishtirok etib bordi.

Jadidshunos olim Ulug‘bek Dolimovning fikricha “Usuli jadid” nomini olgan “usuli savtiya”ga asoslangan maktablar mohiyat e’tibori bilan “rus-tuzem” maktablariga qarshi vujudga keldi. “Usuli jadid” maktablarida milliy ma’naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o‘rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta’lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma’naviyati asoslarini o‘qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o‘zligini saqlovchi asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar[6]. Bu jihatni Ashurali Zohiriylar ham chuqur anglagan edi.

XX asr boshlaridagi jadid maktablari va ularning faoliyati xususida teranroq anglash immunitetiga ega bo‘lishda Orenburgda chop etilgan “Vaqt” gazetasining 1909-yilning 508-sonida bosilgan “Ho‘qand musulmonlarida maktab va o‘quv” maqolasi e’tiborga molikdir. Maqola Shokir Muxtoriyining qalamiga mansub. Shokir Muxtoriy Qo‘qondagi usuli-jadid maktablari xususida to‘xtalar ekan, jumladan: “Ho‘qandda 15 qadar usuli jadid maktabi bor. Bunlarda yuzlarcha bolalar o‘qir. Muallimlarning 3-5 tasi tatarlar bo‘lib qolganlari yerlilardir. Yerli muallimlardan mulla Salohiddin va Shox A’zam nominda bo‘lganlari avvallari go‘zal ijтиҳод etmish esada, so‘ngalarlar har kim kelib muallim bo‘lg‘onig‘a ko‘ra, usuli-jadid ila o‘qituv

tartibi buzulg‘on. Maktablar bolalarni bir vaqtida qabul etuv, imtixondan so‘ng ta’til yasov kabi odatlar yo‘q. bir muallimda 100-15- bola bo‘lib, xech ta’tilsiz yil bo‘yina o‘qib turar”[8] deb yozgan holda, Qo‘qondagi jadid maktablarini tanqid qilib o‘tadi. Muallif o‘z mulohzalarini davom ettirib, Qo‘qonda qizlar uchun maxsus tarzda, o‘qitish sharoitlariga ega maktab qurish lozimligini urg‘ulab, xalqning o‘zida ham qizlarni o‘qitishga bo‘lgan ishtiyoyq baland ekanligini yozgan. Ana shu ishtiyoqni his qila olgan tatar millatiga mansub muallima ayol Habiba Jamol xonim tomonidan “...Ho‘qandda usuli-jadid ila bir dona qizlar ochildi”[8]. Biroq, bu butun boshli shahar ahli uchun nihoyatda kam edi.

Ashurali Zohiri o‘qituvchilik malakasi va madaniyatini yaxshi o‘zlashtirgan muallim sifatida eski maktabda dars bergan vaqlarda o‘quvchilariga “Haftiyak”dan, ya’ni “Qur’on”ning asosini tashkil etuvchi bo‘limidan dars bergan; ikkinchi bosqich sifatida savol-javob tarzida yozilgan “Chahor kitob”dan saboq o‘rgatgan. Yuqoridaqit kitoblar o‘qib tugatilingach o‘quvchilarining fikrlash qobiliyati va saviyasiga qarab Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Xo‘ja Hofiz, Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning asarlaridan o‘qitgan. Ko‘rinib turibdiki, Ashurali Zohiri o‘zining kelgusidagi pedagogik faoliyati davomida Muhammad Alixon madrasasida o‘zlashtirgan bilimlaridan hamda dars o‘tish metodikalaridan unumli foydalangan, klassik dars berish uslubini keyinchalik ham qo‘llab kelgan.

Ashurali Zohiri ba’zi maslakdosh jadid ziyolilari kabi eski maktabni to‘laqonli shaklda inkor etmasdan, balki uning ham ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatli jihatlarini o‘zining pedagogik faoliyatiga jalb etgan va amalda mohirona tarzda qo‘llagan. Qolaversa, Ashurali Zohiri aynan yangi usuldagagi ta’lim jarayonida eski maktab va madrasalarda o‘qitilanadigan Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Xo‘ja Hofiz, Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho shaxsiyatlarning asarlarini o‘qitish orqali o‘z o‘quvchilarida tarixiy merosning ma’naviy urug‘larini ekishni ham ko‘zlagan.

Shuningdek, Ashurali Zohiri qo‘qonlik hammaslaklaridan farqli o‘laroq, maktablardagi imtihonlarni yengilroq o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan. Ashurali Zohiriyning fikricha Turkiston musulmonlari orasida usuli-jadid maktablari o‘zining ma’rifiy va ma’naviy foydalari bilan katta obro‘-etibor qozonganligini, mahalliy ziyolilarning o‘zi no‘g‘ay muallimlari o‘qitadigan jadid maktablariga nisbatan yaxshiroq o‘qitish tizimini ishlab chiqqanligini qayd etib, endi ulardan qolgan murakkab imtihon olish tizimini ham qayta ishlab chiqish lozimligini ta’kidladi. Toki imtihonni ko‘rganlar “Imtihon majlisi shundog‘ bo‘lur ekanda?!” demasinlar.

Qo‘qondagi jadid maktablarida imtihon bo‘ladigan kuni o‘ziga xos tayyorgarlik ko‘rilib, ortiqcha isrofgarchiliklar yuzaga kelar edi Ashurali Zohiri ushbu holatni ham qattiq tanqid qilib qo‘qonlik shoir Zavqiy ishtirokida bo‘lib o‘tgan bir voqeani maqolasida quyidagicha keltiradi: “Tojiddinboy afandi ta’sis etgan maktabning shogirdlarig‘a 6-mayda (1914-yil) imtihon majlisi qiladur. Ushbu majlisga avvalgilardan ham ziyodaroq tayyorgarlik ko‘rilgan ekan. Majlisda har sinf (tabaqa)dan odam bor edi. Shogirdlar o‘qug‘on bir milliy she’r ta’siri birla bo‘lsa kerak yerlik shoirlarimizdan Zavqiy afandi majlis o‘ratinda turib, ul to‘n bermoq va takalluflanmoq xususida so‘z boshlab imtihonda hozir bo‘lg‘on hay’ati mualliming‘a xitoban:

“Siz muallimlar! Ortiqcha isrofotlarni, hatna to‘ynalarini hammavaqt tanqid qilur edingizlar, ne uchun boshlab o‘zlarining bu ilmiy majlisni hatna to‘ylarig‘a o‘xshatib, takalluflanasizlar? Ham xizmat etsalaringiz, ham 100-200 so‘m harjlab imtihon qilsalaringiz, bul hech bir kelishmas. Imtihon ‘a kelg‘on zotlar to‘n va taom uchun kelmaydurlar. Har kimning hissi milliysi bo‘lsa kelaveradur”. So‘ng‘ra majlisda hozir bo‘lg‘on Mulla Kamoliddin qozi janoblarig‘a bul so‘z eshittiruldi. Janob qozi ham nihoyatda istijon qilib “Man ba’d” imtihon majlislarini imkonli boricha soddalashdirilsun. Hech kimg‘a to‘n va boshqa narsa berilmasun. Agar bul to‘g‘rig‘a yoki usuli-jadidag‘a e’tiroz etguvchi bo‘lsa, shariatg‘a muvofiq jazosini berurman”[9].

**Tahlil va natijalar.** Shu bilan birga Ashurali Zohiriyning ushbu maqolasidan mahalliy ziyoqlilar tomonidan ochilgan yangi-usul maktabidagi imtihon muvaffaqiyatli o‘tganligini anglash mumkin. Qolaversa, muallif maqolada Kamoliddin qozining jadid maktablari to‘g‘risida asossiz uydirmalarni tarqatib, maktab obro‘sini tushurmoqchi bo‘lib yurgan isnonlarga qarata aytgan: “Mana! Ikki yilda ham borib-kelib bo‘lmaydurg‘on Haj safarig‘a, poyezd va paraxodlar soyasida ikki oyda borib kelsa bo‘lur, bul ham usuli jadiddur. O‘lturg‘on o‘rnimizda turib dunyoning narigi chetidan telegraf vositasi birla xabar olamiz, shul joyda turib telefon vositasi birla Andijon, Namanganni bilish, tanishlarimiz bilan so‘zlashamiz, bul ham usuli jadid. Qani buning yomonlig‘i?”[9]. Ashurali Zohiri Kamol qozining so‘zlariga ilova tarzida usuli-jadid (jumladan usuli-jadid maktablari ham) insonning umrini bo‘lar-bo‘lmasga zoye’ qilmaslik uchun ishlab chiqarilgan usul ekanligini ta’kidlagan.

Shuningdek, Kamol qozining fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, XX asr boshlaridagi Qo‘qonning ijtimoiy-siyosiy muhitida ham jadid-qadim nizosi ma’lum bir darajada bo‘lib turgan. Bu to‘g‘risida xatto “Vaqt” gazetasining 1917-yilda No‘siravon Yarushev ham “Turkiston ulamosi” nomli maqola e’lon qilgan[10].

Bu muammoni hal etish uchun qo‘qonlik jadidlar tomonidan – xususan, davriy matbuot sahifalarida Abdullabek Musabekovning “Ittifoq va ittihod”, imzosiz muallifning “Har bir yaxshiliq ittifoqda” kabi maqolalar e’lon qilingan. Abdullabek Musabekovning “Ittifoq va ittihod” nomli maqolasi “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 33-sonida bosilgan bo‘lib, jumladan unda muallif Turkiston ahli azal-azaldan ahli sunna val-jamoa e’tiqodi asosida o‘zaro birlikda tinch-totuv yashab kelganligini eslatib, hozirga kelib ushbu birlikka putur yetganligini afsus bilan yozib, ayni paytda birlik barcha narsadan ko‘ra eng muhimi ekanligini urg‘ulagan.

“Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 23-may kungi sonida chop etilgan “Jadid va qadim nedur?” maqolasi ham ayni shu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, uning muallifi Abdulloh ash-Shoshiydir. U o‘zining maqolasida: “Binobarin Hazrati Imom Rabboniyi mujaddidi soniy derlar. Ya’ni sanoyi hijriya’ning ikkinchi mingida dinni jadid qilg‘uvchi, rivojlantirguvchi va nusrat yuborguvchi deyiladir va ham hadisda kelibdurki, “Alloh taolo hazrati yuborur va paydo qilur ushbu ummat marhamatining nafi uchun va dini islomning rivoji va taraqqiysi uchun har yuz yil boshida mujaddid yuboradur” deb yozgan holda, islom dinining o‘zi jadidchilikni ya’ni yangilikni, zamonga moslashishni talab qilishini urg‘ulagan. Qo‘qondagi jadid va qadim

o‘rtasidagi nizo sababidan bo‘lsa kerak, Ashurali Zohiriy o‘zining yangi usuldagi o‘qitish tizimida eski maktablarda o‘qitilgan adabiyotlardan keng foydalangan bo‘lsa ajab emas.

Ashurali Zohiriy keyinchalik Sovet hokimiyyati yillarida ham maktab ta’limi va matbuot tizimiga eng katta e’tibor bergen shaxslardan biri bo‘ldi.

1922-yilda Samarqand shahrida O‘zbek madaniyat va maorif xodimlarining o‘lka qurultoyi o‘tkazilib, unda ko‘plab o‘zbek ziyolilari qatorida Ashurali Zohiriy ham ishtirok etdi. Bu qurultoy to‘g‘risidagi maxsus maqola “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 7-sonida boshilgan bo‘lib, unda dastlab qo‘qonlik taraqqiyat parvar Mirzohid Oqilov Farg‘ona maktablari xususidagi sitatistik ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Uning aytishicha Farg‘onadagi maktab tizimi halokatli ahvolda bo‘lib, bu yerda jami oldingi yillarda 128 ta maktab mavjud bo‘lib, ayni paytga kelib ularning soni 35 taga tushib qolgan. Butun Farg‘ona bo‘ylab bor yo‘g‘i 5 tagina qizlar maktabi ishlab turganligi ta’kidlangan[11]. Mirzohid Oqilov Farg‘ona hududidagi maktablarning bu darajada harob ahvolga tushib qolishini og‘ir iqtisodiy yetishmovchilik bilan izohlagan.

Ashurali Zohiriy ham ushbu qurultoyda Farg‘ona maktablari to‘g‘risidagi fikrlari bilan birga, ko‘proq matbuot masalalariga to‘xtalgan. Aftidan u, Mirzohid Oqilov bilan birga Farg‘onaga doir qilinadigan ma’ruzalarni qurultoy boshlanishidan avval mavzuiy jihatdan o‘zaro taqsimlab olgan.

Ashurali Zohiriy qurultoydagi o‘z ma’ruzasida Farg‘ona xalqi matbuotga nisbatan rag‘bati juda pasayib ketganligi, bunga esa bosmachilar to‘g‘risidagi targ‘ibot va tashviqotga yo‘naltirilgan maqolalarning soni haddan tashqari ko‘p ekanligi bilan izohlanishini ochiq tarzda aytdi. Bu gapning – shaklan bosmachilik, mohiyatan milliy istiqlolchilikka qarshi bolsheviklar tomonidan olib borilayotgan kurash eng cho‘qqiga chiqqan davrda aytilishi – shubhasiz Ashurali Zohiriyning sovet davrida ham milliy qiyofasini yo‘qotmaganligini anglatadi.

Xulosa o‘rnida yozganda, Ashurali Zohiriy garchi madrasa ta’limini olib keyinchalik jadid maktablarida muallimlik qilgan bo‘lsa ham, o‘zining pedagogik faoliyatida eski madrasa ta’limiga doir usullarni ham tadbiq etib, yangi usul va eski o‘qitish usullarini o‘zaro uyg‘unlashtirdi.

Shuningdek, Ashurali Zohiriy jadid maktablaridagi va keyinchalik rus-tuzem maktablarida o‘zbek xalqining klassik mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini ham o‘qitish jarayonlarida bevosita tadbiq etdi. Bularning ichida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz adabiyot namoyondalarining ham asarlari bor edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g’oyaviy rahnamolari. – T.: “Eldinur” nashriyoti. 1998 yil
2. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 y.). – T.: “Universitet” nashriyoti. 2002.

3. Zohiriy A. Umumiy kitobxona va qiroatxonaga ehtiyoj // “Sadoyi Farg’ona” gazetasi. 1914-yil 18-iyul.
4. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati tarixi. – T.: “Fan” nashriyoti. 2023 yil.
5. Ho’qandda yangi ochilmish “G’ayrat” kutubxonasinda // “Sadoyi Farg’ona” gazetasi. 1915-yil
6. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 1-son.
7. Dolimov U. Rus-tuzem maktablari // “Tafakkur” jurnali. 2010-yil 3-son.
8. Shokir Muxtoriy. Ho’qand musulmonlarida maktab va o’quv // “Vaqt” gazetasi. 1909-yil, № 508
9. Ashurali Zohiriy. Imtihonlarni soddalashtirmoq // “Sadoyi Farg’ona” gazetasi. 1914-yil 9-may.
10. No’shiravon Yarushev. Turkiston ulamosi // “Vaqt” gazetasi. 1917-yil 18-yanvar.
11. O’zbek madaniyat va maorif xodimlarining o’lka qurultoyi // “Qizil bayroq” gazetasi. 1922-yil 7-aprel.